

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|------|
| L.T.Galimullina | |
| Internal form of phraseological units with the components of precious stones and metals in the english language | 1213 |
| A.O.Oxunov | |
| Ingliz va O'zbek tillarida undov so'zlar (interjection)ning ifodalanishi | 1217 |
| M.U.Mamadjanova | |
| Linguocultural features of the epithets | 1221 |
| M.U.Mamadjanova | |
| Tilshunoslikda epitetning lingvistik tabiati haqidagi turli qarashlar | 1224 |
| M.M.Umaralieva | |
| The significant role of lingua-psychological, pedagogy-didactic, and methodological factors in the planning and implementation of self-directed programs | 1227 |
| Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov | |
| Bit-dars texnologiyasi asosida ijodiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi tahlili | 1232 |
| Sh.Z.Xolmatov | |
| So'z urg'usining nazariy tavsifi va ahamiyati qiyosiy aspektida | 1236 |
| M.M.Umaralieva | |
| A proficient approach to self-directed learning | 1241 |
| Sh.F.Latipov | |
| Grammatical lacunas as markers of cultural and linguistic identity | 1246 |
| Sh.F.Latipov | |
| Lingvistik lakunani aniqlash haqida ayrim tushunchalar | 1249 |
| A.A.Qosimov | |
| Linguo-pragmatic typology of metaphors: the intersection of language and pragmatics | 1252 |
| A.A.Qosimov | |
| A linguo-cultural approach to metaphor classification: unveiling cultural concepts through figurative language | 1258 |
| M.G'.Zaylobidinova | |
| Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish | 1264 |
| Д.Ш.Ибрагимова | |
| Сущность и структура иноязычной коммуникативной компетенции будущих учителей | 1268 |
| Д.Ш.Ибрагимова | |
| Эффективность использования театрализации в обучении студентов устойчивым базовым английским фразам для чрезвычайных ситуаций | 1272 |
| Д.Ш.Ибрагимова, Й.Х.Музаффархонов | |
| Использование театрализации в процессе формирования речевых навыков у студентов | 1278 |
| M.N.Abdulimova | |
| Theory of cognitive and conceptual metaphors | 1282 |
| M.N.Abdulimova | |
| Analysis of metaphors used in political texts | 1286 |
| S.O'.Shermamatova | |
| Analyses of J.D.Salinger's works | 1291 |
| X.Zikiryoxonovna | |
| Falsafiy-psixologik romanda tush motivi | 1295 |
| X.Z.Umarova | |
| Maktublar – qahramon qalb oynasi | 1298 |
| Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov | |
| Significance of motivation in developing students' creative cooperation skills | 1301 |
| S.S.Usmanova | |
| Jadidchilik va adabiy muhit xususida | 1304 |
| V.Abdurakhmanov | |
| Classification and description of the main alternative issues in social life | 1307 |
| R.M.Turdimatova | |
| The intricacies of irony: types and examples | 1311 |



UO'K: 811.111.1:811.512.133

TILSHUNOSLIKDA EPITETNING LINGVISTIK TABIATI HAQIDAGI TURLI QARASHLAR

РАЗНЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ЯЗЫКОВУЮ ПРИРОДУ ЭПИТЕТА В ЛИНГВИСТИКЕ

DIFFERENT VIEWS ON THE LINGUISTIC NATURE OF THE EPITHET IN LINGUISTICS

Mamadjanova Maftuna Uktamovna

Phd student, Fergana State university

Annotatsiya

Ushbu maqolada nutq figurasi bo'lgan epitetning lingvistik tabiati haqidagi tilshunos olimlarning turli qarashlari tadqiq qilinadi. Epitetning nutq hodisasi sifatida til tuzilishi darajasida, yuqori abstraksiyada qo'llanilishi, avvalambor, uning lingvistik jihatlarini o'rganishdan iboratdir. Epitetni o'rganishdagi bunday yondashuvda uni boshqa stilistik vositalardan ajratib, uning tilimizda mavjud boshqa ifoda vositalari tizimidagi o'rnini aniqlash birinchi navbatdagi vazifa sanaladi. Tadqiqotda epitetning lingvistik xususiyatlarini tahlil etish maqsadida tilshunos olimlarning ilmiy tadqiqot ishlariga, lug'at va darsliklarga, XX asr o'zbek adabiyoti namunalari murojaat etiladi. Topilgan misollar tahlili epitetli birikmalarning nutqda qanday yuzaga kelishi, nazariyasi va kognitiv qayta ishlashga ta'sirini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются различные взгляды лингвистов на языковую природу эпитета, который является фигурой речи. Употребление эпитета как речевого явления на уровне языковой структуры, в высокой абстракции, заключается прежде всего в изучении его языковых аспектов. При таком подходе к изучению эпитета первой задачей является отделение его от других стилистических средств и определение его места в системе других выразительных средств, имеющихся в нашем языке. Для анализа языковых особенностей эпитета в исследовании используются научные исследования лингвистов, словари и учебники, примеры узбекской литературы XX века. Анализ найденных примеров помогает глубже понять, как соединения эпитетов встречаются в речи, их теорию и влияние на когнитивную обработку.

Abstract

This article examines the different views of linguists about the linguistic nature of the epithet, which is a figure of speech. The use of the epithet as a speech phenomenon at the level of the language structure, in high abstraction, consists first of all in studying its linguistic aspects. In such an approach to the study of epithet, the first task is to separate it from other stylistic tools and determine its place in the system of other expressive tools available in our language. In order to analyze the linguistic features of the epithet, the study refers to scientific research works of linguists, dictionaries and textbooks, examples of Uzbek literature of the 20th century. The analysis of the found examples helps to gain a deeper understanding of how epithet compounds occur in speech, their theory, and their impact on cognitive processing.

Kalit so'zlar: Epitetli birikmalar, tilshunoslik, til talqini, sifat-ot birikmalari, morfologik kategoriya.

Ключевые слова: Эпитетические соединения, лингвистика, языковая интерпретация, сочетания прилагательного и существительного, морфологическая категория.

Key words: Epithetic Compounds, Linguistics, Language Interpretation, Adjective-Noun Combinations, Morphological category.

KIRISH

Epitetning stilistik vosita sifatida til tuzilishi darajasida, yuqori abstraksiyada qo'llanilishi uning lingvistik jihatlarini o'rganishdan iboratdir. Epitetni o'rganishdagi bunday yondashuvda uni boshqa stilistik vositalardan ajratib, uning tilimizda mavjud boshqa ifoda vositalari tizimidagi o'rnini aniqlash birinchi navbatdagi vazifa sanaladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun, avvalambor, epitetning muhim, o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarini aniqlash zarur. Har qanday ifoda vositalarini lingvistik nuqtai-nazardan ko'rib chiqish, ushbu vositalarning morfologik va semantik jihatlarini tadqiq etishni va o'rganishni talab etadi. Epitetni o'rganishning ko'p asrlik tarixiga qaramay, uning muhim xususiyatlariga bo'lgan qarashlarda tilshunos olimlar orasida hali ham bir to'xtamga kelinmagan. Aksariyat tadqiqotchilar epitetning asosiy xususiyati sifatida uning semantik

TILSHUNOSLIK

xususiyatlarini e'tiborga oladilar va buni epitet ta'rifining markaziga qo'yadilar.[1.1] Epitetga ob'yektning har qanday atributini aniqlovchi ifoda vositasi sifatida qarab, bir so'zga qo'shilib, uning majoziy va ekspressiv ma'nosini oshirish va boyitish uchun qo'llaniladigan birikma tarkibidagi so'z deya ta'riflaydilar. Boshqa tadqiqotchilar semantik xususiyat qatoriga epitetga xos bo'lgan yana bir muhim jihat morfologik tahlilini qo'shish zarur deb hisoblaydilar.[2.3] Shu bilan birga, yana bir guruh tilshunoslar epitet va oddiy aniqlovchi orasiga chegara qo'ysalar, ayrimlarining fikricha, har qanday epitet oddiy aniqlovchi bo'lib, predmetning belgisini ta'riflaydi, deb ko'rsatadilar.[3.4] Ularning nazarida, epitet o'zining morfologik va semantik xususiyatlarini birlashtirgan holda izohlayotgan tushuncha mazmuniga hech qanday qo'shimcha ma'no yuklamaydi, uning dastlabki nominativ mazmunini saqlab qoladi. Bizningcha, bu fikr haqiqatdan yiroq, chunki oddiy aniqlovchi narsaning bir belgisiniga aniqlashga xizmat qiladi. Epitet esa narsadagi turli xossalar, belgilar ichidagi alohida olingan bir belgini ham sub'yektiv, ham emotsional jihatdan aniqlashga xizmat qiladi. Zero, aniqlovchi belgini qayd etishdan iborat bo'lsa, epitet belgining sub'yektiv-emotsional bahosidan iborat. Epitetning muhim belgilarini aniqlashning yana bir yondashuvi bu uning morfologik va sintaktik jihatdan ifodalanishini o'z ichiga oladi. Bu masalani tor nuqtai nazardan izohlagan tishunoslarning fikricha, epitet faqatgina sifat so'z turkumi bilan ifodalanishi mumkin, deb aytilgan bo'lsa, boshqa bir guruh tilshunoslar ushbu hodisani har qanday morfologik kategoriya bo'yicha ifodalanishi mumkinligini bayon etadilar.[4.6]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot mavzusiga doir ilmiy-nazariy fikrlar xorijiy lingvistlar A.A.Potebnya, V.M.Jirmunskiy, Y.M.Skrebnev, A.N.Veselovskiy, M.D.Kuznes, I.R.Galperin, M.Greviss, T.A.Burkova, N.M.Naer, V.I.Korolkov, S.Gubanov, T.Fadeyeva, T.M.Guseva va boshqalarning tadqiqotlarida uchraydi. Ingliz va nemis tilshunosligida epitet masalasi, uning tabiati, izohi, shakllanish mexanizmi va manbalari D.Kristal ("A Dictionary of Language"), J.Mayers va D.Vukay ("Dictionary of poetic terms"), K.Ueyls ("A Dictionary of Stylistics"), B.G.Sovinskiy ("Deutsche Stilistik Beobachtungen zur Sprachverwendung und Sprachgestaltung im Deutschen"), Daniel Walden ("To sing the deeds of Men"), A.R.Harris ("A Handbook Of Rhetorical Devices") kabilarning tadqiqot va lug'atlarida yoritilgan.

Ushbu maqolani yozishda tavsiflash, tasniflash, diaxron va sinxron tahlil, qiyoslash, lingokulturologik va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Epitet faqatgina sifat so'z turkumi orqali emas, balki fe'l, ot hamda ravish kabi boshqa so'z turkumlari bilan ham ifodalanishi mumkin. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, fe'l so'z turkumidagi so'zlar ham epitetga uchraydi va ushbu hodisaga duch kelgan paytda o'z turkumini o'zgartirmaydi, ya'ni fe'l turkumida qo'llanaveradi. Yuqorida keltirgan ta'rifimizga ko'ra epitetlar so'z sememasining ayrim semalariga asoslanib namoyon bo'ladi. Masalan, "*Bilishmaydiki, pul ham bolalaydi*" (Oybek). Bu gapdagi *bolalamoq* fe'li o'z ma'nosining *ko'paymoq* semasi bilan qo'llangan. Bu fe'l asli ma'nosi uch semaga ega bo'lib, ular *nasl bermoq*, *ko'paymoq* hamda *shox chiqarmoq* semalaridan iborat edi.[5.21] Lekin bu semalarning birinchisi va uchinchisi nutqda o'z o'rnini topmagan. Fe'l ma'nosining bir sema bilan qo'llanishi esa epitetni yuzaga keltirgan.

S.Gasparyan va N.Minasyanlar epitetning lingvistik jihatlarini aniqlashda uning lingvomadaniy xususiyatlarini ham tadqiq etish muhimdir, deb ta'kidlaydilar.[6.22] Ularning fikricha, epitetlarning lingvomadaniy xususiyatlari ularning lingvistik xususiyatlarini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shaxs yoki narsaning muhim xususiyatlarini ifodalash uchun xizmat qiladigan epitetlar ma'lum bir til va madaniyatning o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Epitetlar madaniy kontekstga qarab turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkin.[7.23] Masalan, ingliz tilidagi *pig (cho'chqa)* epiteti bir madaniyatda ijobiy ma'noga ega bo'lsa, boshqasida salbiy ma'noga ega bo'lishi mumkin. Ushbu ma'nolarni tushunish epitetning to'liq lingvistik tabiatini aniqlashda juda muhim ahamiyatga ega. Ingliz adabiyotida mashhur Gomerning "Odessey" dostonida qo'llanilgan *rosy-fingered dawn* epitetli birikmasi boshqa tillarga bevosita tarjima qilinmasligi mumkin bo'lgan o'ziga xos madaniy va lingvistik tasvirni o'zida namoyon etadi.

XULOSA

Epitetning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarini belgilashda aytib o'tilgan yuqoridagi tamoyillarning tahlili shuni krsatadiki, ularning hech biri alohida olingan holda ushbu uslubiy vositaning har tomonlama va izchil tavsifini bera olmaydi. Demak, ana shu to'rt jihat: semantik xususiyatlar, sintaktik vazifa, lingvomadaniy xususiyatlar hamda morfologik ifodalanish usullari epitetning o'zigagina xos muhim lingvistik belgilari bo'lib, faqat shu jihatlarning barchasini hisobga olgan holda unga to'liq va izchil tavsif berish mumkin. Ayni shu xususiyatlar epitetni tilimizdagi boshqa stilistik vositalardan ajratish va tilning ifoda vositalarining umumiy tizimidagi o'rnini aniqlash uchun zarur va yetarlidir. Epitetning ushbu muhim belgilarining birontasiga e'tibor bermaslik yoki nazardan chetda qoldirish, ekspressiv vositalar tizimida jiddiy chalkashliklarga, tasniflashda parchalanishga yoki bir-birini takrorlashga, stilistik vosita doirasini haddan tashqari toraytirish yoki kengaytirish kabi jiddiy xatoliklarga olib kelishi mumkin. Epitetni semantik, sintaktik, lingvomadaniy va morfologik-sintaktik jihatdan ifodalanishida yetarli darajada aniqlikning yo'qligi uning leksik va sintaktik kategoriyalarini izohlashda chalkashliklarga, semantik jihatdan noto'g'ri xulosalar chiqarishga sabab bo'lishi mumkin. Bunday tushunmovchiliklarga epitetning morfologik ifodalanishini e'tiborsiz qoldirish olib keladi. Epitetga xos bo'lgan ta'rifning ushbu jihatini uning muhim belgilaridan chiqarib tashlash, epitet atamasining lingvistik tabiatida mutlaqo boshqa hodisalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bizningcha, stilistik vositalar tasnifida mavjud bunday nomuvofiqlikning sababi uslubiy vositalarga xos bo'lgan semantik jarayonlar iyerarxiyasini e'tibordan chetda qoldirish hisoblanadi. Stilistik qurilmalarni tasniflashda ushbu uslubiy vositaning semantik xususiyati iyerarxiyaning eng yuqori darajasini egallagan bo'lib, u epitetning morfologik ifodalanishi bilan uzviy bog'langan. Epitetning muhim belgisi bo'lgan ushbu jihatni nazardan holi qoldirish oqibatida uning semantik xususiyatlariga putur yetishi mumkin. Epitetning lingvistik tabiati va uning o'zigagina xos xususiyatlari haqida gap ketar ekan, uning semantik xususiyatlarini o'rganish ushbu uslubiy vositaning tilshunoslikda mavjud unga yondosh hodisalardan farqlashga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Зеленецкий А. Эпитеты литературной русской речи. - Москва, 1913, - С. 6; Малаховский В.А. Эпитет Тютчева. - Чита, 1922, - С. 20; Шалыгин А. Теория словесности. - Петроград, 1916, - С. 37.
2. Кузнец М.Д., Скребнев Ю.М. Стилистика английского языка: пособие для студентов. - Л.: Государственное учебно-педагогическое издательство министерства просвещения РСФСР, 1960. - С. 13-175.
3. Краткая литературная энциклопедия. Т8.-М.: Советская энциклопедия. -1975. - С. 921-923.
4. Галперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. - Москва: Издательство литературы на иностранных языках, 1958. - С. 139-460.
5. Потебня А.А. Теоритическая поэтика. - Москва: Академия, 2008. - С. 165-373.
6. Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика, Стилистика. - Москва: Либроком, 2009. - С. 355-464.
7. Скребнев Ю.М. Основы стилистики английского языка. - Москва: Астрель, 2003. - С. 139.
8. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. - Москва: Высшая юкола, 1989. - С. 59-405. 9. Grevisse M. Le bon usage/Grammaire française. - Ed Duculat A Geuthner, 1951. - 20 p.
10. Буркова Т.А. Stilistik der deutschen Sprache. Стилистика немецкого языка: Учебно-методическое пособие. - Уфа, 2002. - С. 60-124.
11. Наер Н.М. Стилистика немецкого языка: учеб. пособие. - Москва: Высшая юкола, 2011. - С. 233-271.
12. Губанов С.А. Эпитет в творчестве М.И. Цветаевой: семантический и структурный аспекты. Самара, 2009. - С. 45-234.
13. Фадеева Татьяна Михайловна. Сложный эпитет ядерная единица художественного пространства в русском языке. Москва, 2014. - С. 10-460.
14. Гусева Т.М. Сложный эпитет как стилеобразующая единица художественного пространства И.А. Бунина. Москва, 2001. - С. 55-178.
15. Crystal D. A Dictionary of Language. 2nd edition. University of Chicago Press, Chicago, 2001. - P. 107- 391.
16. Myers J., Wuckasch D. Dictionary of poetic terms. University of North Press Denton, Texas, 2003. - P. 126-334.
17. Wales K. A Dictionary of Stylistics. Pearson Education Limited, 1990, 2001. - P. 132-433.
18. Sowinski B. Deutsche Stilistik. Fischer Taschenbuch Verlag, 1992. - P. 330-345.
19. Daniel O. Walden. To sing the deeds of Men. University of Michigan, Michigan, 2021. - P. 85-187.
20. Harris A.R. "A Handbook Of Rhetorical Devices". BibTex, 2010. - P. 35-48.
21. O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. Toshkent: G'afur G'ulom, 2023. -B. 523.
22. Gasparyan S., Minasyan N. "Translating epithets in fiction: A stylistic study of semantic and pragmatic equivalence". "ESBB Volume9", 2023, Issue1.
23. Guzova A.V., Savitskaya N.V., Ivolina T.V., Dedova O.V. "Stylistic device of the epithet of literary text as a means of teaching students a second foreign language". Philology: scientific researches, 2020, Volume 12.